

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

6-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

G.Jo'rayeva	
Firoqiy va Partav	314
Z.Teshaboyeva	
Abduqayum yo'ldoshning obraz yaratish mahorati	318
N.J.Abdusamatova	
Katta va tayyorlov guruh bolalari nutqini rivojlantirish jarayoniga integrativ yondashuv orqali maktab ta'limiga tayyorlash samaradorligini ta'minlash	322
Sh.A.Ermatova	
Erkin Vohidovning "Nido" dostonini o'qitishda "Blum taksonomiyasi" dan foydalanish	326
M.J.Juraboyeva	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini milliy qo'shiqlarni tinglash va tahlil etishga o'rgatishning o'ziga xosligi	331
Sh.M.Usanov	
O'zbekistonda millatlararo hamjihatlik va totuvlikning ta'minlanishida milliy madaniy markazlarning o'rnini.....	334
V.A.Giyosova	
Glyuttonimlar bilan ifodalangan bolalarga oid murojaat birliklari	339
Г.Р.Абдуллаев	
Социокультурные и этнические особенности в развитии молодёжи в узбекских семьях под влиянием опыта пожилых.....	342
J.Sh.Amayusupov	
Bo'lajak pedagoglarda analitik tafakkurni rivojlantirish bosqichlari.....	345
M.T.Voxidova	
Abu Nasr Forobiy asarlarida insonparvarlik masalalari	350
N.M.Xodjibolayeva	
Jadid mutafakkirlarining qarashlari asosida talabalarning ekologik kompetentligini rivojlantirishning ilmiy-pedagogik imkoniyatlari	354
Sh.M.Muxamedov	
Materialshunoslik fanining elektron-dasturiy va metodik ta'minotini takomillashtirish.....	358
S.I.Raxmatullayeva	
Farg'ona viloyati axborot kutubxona markazi faoliyati tarixi	371
M.A.Junaydullayev	
Buxoroda jadidchilik harakatining vujudga kelishi tarixiy shart-sharoitlari	377
M.M.Temirova	
Ichki ishlar profilaktika inspektorlarining jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta'minlashda asosiy vazifalari va funksiyalari	382
M.U.Kurbanov	
Umumiy o'rta ta'lim maktablari pedagogik jamoasini maqsadli boshqarishda ergonomik yondashuv	387
M.O.Batirkhanova	
Badiiy asarlardagi somatik frazeologik birliklar tarjimasining kommunikativ-pragmatik xususiyatlari	391
M.C.Ганиева	
Особенности социально-философских взглядов по развитию женского предпринимательства.....	395
I.A.Ismoilov	
Jazo tushunchasi va uning mazmun-mohiyati xususida	401
D.G'.Zaylobidinova	
Bo'lajak xorijiy til o'qituvchilarining kasbiy o'zini-o'zi rivojlantirishning metodik tizmi	405
D.A.Abduraxmonov	
Bo'lajak pedagoglarda kreativlik ko'nikmalarini rivojlantirish masalasiga doir	408
M.M.Yunusov	
Universitetlarda "Kimyoviy texnologiya" fanini fanlararo bog'lanish asosida o'qitishning pedagogik-psixologik jihatlari	416
G'.M.Alamov	
Sog'lom turmush tarzini to'g'ri tashkil qilishda xalq o'yinlarining o'rnini.....	420

FARG'ONA VILOYATI AXBOROT KUTUBXONA MARKAZI FAOLIYATI TARIXI
ИСТОРИЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ИНФОРМАЦИОННОГО БИБЛИОТЕЧНОГО ЦЕНТРА
ФЕРГАНСКОЙ ОБЛАСТИ
HISTORY OF THE ACTIVITIES OF THE INFORMATION LIBRARY CENTER OF THE
FERGANA REGION

Raxmatullayeva Saodat Ibragimovna¹
¹Qo'qon davlat pedagogika insituti o'qituvchisi

Annotatsiya

Mazkur maqolada Farg'ona viloyati axborot kutubxona markazining tarixi va bugungi kundagi faoliyati va erishgan yutuqlari to'g'risida aytib o'tilgan. Yanada aniqroq qilib aytganda sovetlar davrida Farg'ona viloyati kutubxonasini tashkil etish hamda undagi kitob fondi va kitobxonlari to'g'risida aytilgan. Shuningdek, 1980-yili mahalliy haykaltarosh Aydar Aliev tomonidan kutubxona fasadiga Ahmad al-Farg'oniyning qo'lida kitob ushlagan va osmonga qaragan holdagi qiyofasi metallga ishlangan portret shaklida qo'yilganligi, 1990-yillarda xo'jalik hisobi evaziga kutubxonaning moddiy-texnik negizini mustaxkamlash maqsadida pulli ish usullari amaliyotga kiritildi, bular tungi abonement, fondan chiqarilgan adabiyotlarning sotuvi, til bo'yicha o'quv kurslari, kutubxonachilik kurslari va boshqalar ekanligi, 1991-yildan so'ng, yani mustaqillikka erishganimizdan keyin o'lkashunoslik ishlariga, viloyat tarixini, til va madaniy merosini o'rganishga etibor kuchaytirilganligi masalalari tog'risida aytilgan.

Аннотация

В данной статье анализируется история и сегодняшняя деятельность и достижения информационного библиотечного центра Ферганской области. В частности, говорилось об организации Ферганской областной библиотеки в советское время, а также о ее книжном фонде и читателях. Также в 1980 году на фасаде библиотеки местным скульптором Айдаром Алиевым была установлена фигура Ахмеда аль-Фергани, держащего в руках книгу и смотрящего в небо в виде портрета, выполненного в металле, в 1990-е годы в целях укрепления материально-технической базы библиотеки за счет хозрасчета были внедрены платные методы работы, такие как ночной абонемент, продажа литературы, выпущенной из фонда, языковые учебные курсы, библиотечные курсы и т. д., После 1991 года, то есть после обретения независимости, к краеведческой работе, было отмечено усиление внимания к изучению истории, языка и культурного наследия региона.

Abstract

This article analyzes the history of the Information Library Center of the Fergana region and its activities and achievements today. More precisely, during the Soviet era, it was said about the establishment of the library of the Fergana region, as well as about the Book Fund and readers in it. Also, in 1980, paid methods of work were introduced into practice by the local sculptor Aydar Aliev in order to improve the material and technical base of the library in exchange for a business account in the 1990s, in which the image of Ahmad al-Farghani holding a book in his hands and facing the sky was placed in the form of a portrait, the issues of increased attention to the study of the history of the region, language and cultural heritage are told in the mountain.

Kalit so'zlar: kutubxona, kitob, fond, kitobxon, viloyat, togarak, Ahmad al-Farg'oni, xodimlar, tarmoq kutubxonalar, bolalar kutubxonasi.

Ключевые слова: библиотека, книга, фонд, читатель, область, кружок, Ахмад аль-Фергани, персонал, сеть библиотеки, детская библиотека.

Key words: Library, Book, Foundation, Library, provincial, Ahmad al-Fergani, staff, network libraries, children's library.

KIRISH

Ma'lumki, O'zbekiston qadimdan o'zining boy tarixi hamda madaniyatiga ega bo'lib kelgan davlatlardan biri hisoblanadi. Milliy tariximiz va madaniyatimizning bizgacha yetib kelishida turli xil madaniy merosimiz va qolaversa, tarixiy, alohida qimmatga ega bo'lgan nodir nashrlar muhim ahamiyat kasb etib kelgan. Ushbu tarixiy manbalarni saqlash hamda uni kelajak avlodga borligicha yetkazib berishda kutubxonalar alohida o'rin egallaydi. Kitob bu tarix haqidagi ma'lumotlarni avloddan-avlodga yetkazuvchi, moziy haqiqatlarini kelajakka eltuvchi, jamiyatdagi voqeliklar, ilm-fandagi yangilik va kashfiyotlarni o'zida qayd etib boruvchi, makon va zamon bilmaydigan inson zakosining buyuk mahsullaridan biridir. Xalqimiz azal-azaldan kitob o'qishga, u bilan oshno bo'lishga intilib yashab kelgan. Xalqimiz shuuridagi bu qadimiy an'ana bugun ham o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q. Mustaqillik yillarida yurtimizda qadriyatlarini qayta tiklash, ma'naviyatni yuksaltirish, milliy g'ururni poydor qilish, adabiyot va san'atni ma'naviyatning negizi sifatida rivoj toptirish, erkin

fikr, ezgu soʻz va xayrli amallarga bosh boʻlish davlatimiz siyosatining ustuvor yoʻnalishlaridan birini tashkil qilib kelmoqda. Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev adabiyotimizning bugungi kuni va ertangi istiqboli, yozuvchilar oldida turgan muhim va dolzarb muammolar: ijodkorning fuqarolik pozitsiyasi, ijtimoiy burchi, ijodiy uyushmalar faoliyatining samaradorligini oshirish, adabiyotimiz rivoji uchun nafaqat yozuvchi va shoirlar, balki butun jamiyat masʼul ekaniga eʼtiborimizni qaratmoqdalar. Prezidentimiz taʼkidlaganlaridek, “ ... madaniyatga eʼtibor – bu avvalo xalqimizga eʼtibor, kelajagimizga eʼtibor ekanini, buyuk shoirimiz Choʻlpon aytganidek, adabiyot, madaniyat yashasa, millat yashashi mumkinligini unutishga bizning aslo haqqimiz yoʻq”[1].

ADABIYOTLAR TAHLILI

Tadqiqot ishini oʻrganish va tahlil qilishda tarixiy-xronologik, muammoviy-hududiy yondashuv, qiyosiy tahlil, kuzatish va axborotchilar bilan bevosita suhbatlashish kabi usullar qoʻllanildi. Shuningdek, tarixiy bilmoqning xolislik, sababiylik (determinizm), tarixiylik va tizimlilik (sistemali) tamoyillariga amal qilindi. Turli manba va maʼlumotlarni tahlil qilishda ularga qiyosiy va tanqidiy nuqtai nazardan yondashildi. Davr xususiyatlarini nazarda tutgan holda voqealar tarixiylik, tadrijiylik, sivilizatsion yondashuv usullari asosida umumlashtirildi va tahlil etildi. Jumladan, Z.Berdiyevaning A.Alimova nomli kitobida mustaqillik yillarida respublika va viloyat kutubxonalarini faoliyati har jihatdan ilmiy asosda tahlil etilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mavzuga oid adabiyotlarni mazmun mohiyatiga koʻra ikki guruhga boʻlish mumkin.

Birinchi guruh - sovet davrida nashr etilgan ilmiy adabiyotlar va tadqiqotlar;

Ikkinchi guruh - mustaqillik yillarida chop etilgan ilmiy tadqiqotlar;

Birinchi guruhga oid adabiyotlarga sovet davrida kitobat tarixini oʻrganishga bagʻishlangan koʻplab ilmiy va ilmiy-ommabop asarlar chop etilgan asarlarni kiritish mumkin. Oʻrganilayotgan davrda tarixshunoslik yoʻnalishida yozilgan tadqiqotlarda Oʻrta Osiyoda vujudga kelgan kutubxonalar, ularning taraqqiyot bosqichlari umumlashgan holda kommunistik mafkura talablaridan kelib chiqqan xolda yoritilgan.

Ularda asosiy eʼtibor Oʻrta Osiyo kitobat sanʼati masalalarini oʻrganishga qaratildi. Mazkur davrda ishlangan ishlar ham eʼlon qilingan boʻlib, ushbu tadqiqotlarda oʻrta osiyoda dastlabki piktografik yozuvlarning vujudga kelishi va hudud aholisining yozuv orqali bir biri bilan, ijtimoiy munosabatlarga kirishishi yoritib berilgan .

Ikkinchi guruhga Oʻzbekiston mustaqilligi yillarida nashr etilgan tarix, etnografiya, arxeologiya va sanʼatshunoslik yoʻnalishlarida bajarilgan ishlarni misol sifatida keltirish mumkin. Mustaqillik yillarida tadqiqotlar olib borayotgan olimlar tomonidan Oʻrta Osiyo kutubxona masalalarini tarixiy taraqqiyot bosqichlari va oʻziga xos jihatlarini yoritgan tadqiqotlar yaratildi. Mustaqillik yillarida respublika milliy kutubxona markazlarini faoliyatini oʻrganishga boʻlgan qiziqish ortdi. Buning natijasi oʻlaroq Oʻrta Osiyo kutubxonalarini masalalarini oʻrganishga bagʻishlangan aloxida risolalar, ilmiy asarlar hamda oʻquv qoʻllanmalari ham eʼlon qilindi. Ayniqsa, Turkiston kutubxonalarini va kutubxonlarning ijtimoiy ahvoli haqida yoritilgan ishlar diqqatga sazovordir. Ushbu davrda yaratilgan tadqiqotlar ilmiy-nazariy jihatdan Oʻrta Osiyo kutubxona masalalarini tarixiga xolis yondashilganligi va keng koʻlamdagi manbalardan foydalanilganligi bilan ajralib turadi. Shuningdek, mazkur davrga oid Oʻrta Osiyo kutubxona masalalarini oʻrganishda qiyosiy material sifatida foydalanish mumkin.

TAHLIL VA NATIJALAR MUHOKAMASI

Fargʻona viloyat axborot-kutubxona markazi Oʻzbekiston Respublikasining eng qadimgi kutubxonalaridan biri. Rasmiy maʼlumotlarga koʻra, yangi Margʻilon (Fargʻona shahrining oldingi nomi) kutubxonasi 1899-yil iyunda ulugʻ rus shoiri A.S. Pushkin tavalludining 100 yilligi nishonlanayotgan kunlarda birinchi shahar kutubxonasi ommaviy muzeyining bir boʻlimi sifatida ochilgan[2]. Kutubxona shahar ommaviy muzeyining ikkita xonasida joylashgan boʻlib, uning dastlabki kitob fondi 853 nusxadan iborat, kitobxonlar soni 200 nafar[3,57], u ham boʻlsa, shaharlik ziyolilar boʻlib, keng xalq ommasiga hali ruxsat yoʻq edi. 1913-yilga kelib, fondagi adabiyotlar soni 5600 nusxaga yetdi. 1920-yilda kutubxona Fargʻona shahar kutubxonasi nomini oldi[4]. 1926-yildan eʼtiboran Toshkent shahar kutubxonasi bilan kitob almashinuvi yoʻlga qoʻyildi. Fargʻona kutubxonasidan rus imperatori Yekaterina II davriga oid kitoblar berilib, oʻrniga oʻzbek tilidagi adabiyotlar olinadi va oʻzbek adabiyotlari boʻlimi ochildi, ammo tezda uni uyushmalararo klubga

tarqatib yuboriladi. Faqat 1931-yili yana qaytadan tashkil topdi. 1933-yili bolalar bo'limi ochiladi, 1935-yili fondagi kitoblar tekshiruvdan o'tkaziladi, 1-oktabrga kelib uning soni 25080 kitobdan iborat edi. 1939-yili shahar kutubxonasi negizida viloyat kutubxonasi tashkil topadi. Ammo 1941-yilda boshlangan urush kutubxonani takomillashtirish bo'yicha boshlangan ishlarni to'xtatib qo'ydi. Urush yillarida kutubxona Farg'ona shahriga ko'chirib kelingan Moskva sharqshunoslik inestituti, Moskva tibbiyot instituti, yoshlar instituti talabalariga, shuningdek, yozuvchilar, shoirlar va ilmiy xodimlarga xizmat ko'rsatdi. 1956-yili Farg'ona viloyati tarixi, iqtisodi, madaniyati, mashhur shaxslari haqida o'lkashunoslik adabiyotlari yig'ilib, targ'ib qilina boshlandi. 1959-yilga kelib, kitob fondi 100000 nusxaga yetdi. 1961-yilda kutubxona fondida 107908 nusxa kitob bo'lib, shundan 16755 tasi o'zbek tilida edi. 1967-yilga kelib, kitob fondi 138 ming nusxadan oshib ketdi. 1970-yil viloyat kutubxonasi tarixida o'chmas iz qoldirdi. Kutubxona uchun maxsus qurilgan va jihozlangan, 500 ming tomga mo'ljallangan, hamma sharoitga ega uch qavatli binoga ko'chib o'tdi. Kutubxona tarkibi o'zgardi, xodimlar shtati kengaydi. Unga o'rta asrlarda Osiyoning ko'zga ko'ringan qomuschi olimi, astronomi, geografi, matematik Ahmad al-Farg'oniy nomi berildi. 1977-yil Farg'ona shahrida ro'y bergan tabiiy ofat-suv toshqini kutubxona uchun chinakam fojia bo'ldi. Kutubxonaning asosiy kitob ombori suv ostida qoldi. Kutubxonaning 300 ming nusxadan ortiq kitob, risola va jurnallardan iborat fondining uchdan ikki qismi nobud bo'ldi. Ular orasida 1917-yilgacha davrga oid adabiyotlar, 1920-1930 yillarga taalluqli bebaho adabiyotlar va vaqtli matbuot nashrlari ham bo'lgan[5,59]. Kutubxona xodimlari oldiga kitob fondini qisqa vaqt ichida tiklash vazifasi qo'yildi. Kutubxona jamoasi bu vazifani sharaf bilan uddaladi.

Aholi orasida kitobga bo'lgan talab kun sayin ortib bordi. Shu sababli shahar hokimligi tomonidan kutubxonaga etibor ortib bordi. Xususan, 1980-yili mahalliy haykaltarosh Aydar Aliev tomonidan kutubxona fasadiga Ahmad al-Farg'oniyning qo'lida kitob ushlagan va osmonga qaragan holdagi qiyofasi metallga ishlangan portret shaklida qo'yildi. 1990-yillarda xo'jalik hisobi evaziga kutubxonaning moddiy-texnik negizini mustaxkamlash maqsadida pulli ish usullari amaliyotga kiritildi, bular tungi abonement, fondan chiqarilgan adabiyotlarning sotuvi, til bo'yicha o'quv kurslari, kutubxonachilik kurslari va boshqalar. 1991-yildan so'ng, yani mustaqillikka erishganimizdan keyin o'lkashunoslik ishlariga, viloyat tarixini, til va madaniy merosini o'rganishga etibor kuchaytirildi.

Mustaqillikning dastlabki yillarda respublikaning barcha viloyat kutubxonalari faoliyatida ham tubdan o'zgarishlar amalga oshirildi. Xususan, Farg'ona viloyati kutubxonalari fondini ham qayta tashkil etish yuzasidan ishlar olib borilgan.

Ahmad-al Farg'oniy nomidagi Farg'ona viloyat kutubxonasida ham kutubxona fondini qayta tashkil etish yuzasidan bir qancha ishlar olib borildi. Farg'ona viloyatida madaniyat ishlari vazirligi tizimidagi kutubxonalar (MKT) jami 720 tani tashkil etgan. Jumladan, Madaniyat ishlari vazirligining 1992-yil 13-aprel 01-11/53 sonli xatiga ko'ra ijtimoiy-siyosiy adabiyotlar to'liq o'rganib chiqiladi va va shunga asosan mahnosi eskirgan, zamonga munosib bo'lmagan, kitobxonlar tomonidan so'ralmagan kitoblar viloyat kutubxonasining fondidan chiqariladi. Bu kitoblarning umumiy soni 43433 nusxani tashkil qilib, shundan mahnosi eskirgan kitoblar 39394 nusxa, ishlatishga yaramaydigan adabiyotlar 1632 nusxani tashkil etgan. Kutubxona foidan chiqarilgan adabiyotlar o'rnini yangisi bilan to'ldirish zarurati sababli, kutubxonaga yangi nashrlar kelitirildi. Viloyat kutubxonasiga 1992-yil davomida 192691 so'm 67 tiyinlik 10908 nusxa yangi adabiyotlar, 1414 nusxada o'zbek tilida 127 ming so'mlik vaqtli matbuot olindi. Lekin o'zbek tilida olingan kitoblarning foizi juda kam bo'lgan. Shu sababli 1992-yilga 738 nomdagi o'zbek tilidagi yangi chiqishga rejalashtirilgan kitoblar nashryotga buyurtma berilgan. Ammo buyurtma qilingan kitoblarning faqat 50% bajarilgan[6,57].

1994-yilga kelib, viloyat kutubxonasi fondiga 2524 nusxada 4519 so'm 07 tiyinlik yangi adabiyotlar olindi. Shundan 1564 nusxada 2731so'm 55 tiyinlik o'zbek tilidagi adabiyotlar tashkil etgan. 1998-yilda viloyat kutubxonasi fondiga yangi 618 nusxada 186850 so'mlik kitob sotib oldi. Shuningdek, 518 nusxasi o'zbek tilidagi adabiyotlarni tashkil qildi. Shu yilning o'zida "O'qituvchi", "O'zbekiston", "Ibn-Sino", "Adolat", "Sharq", "G'ofur G'ulom" viloyat nashryotlaridan "Farg'ona" nashryotidan kitoblar sotib olindi[7,59].

2000-yilga kelib kutubxona fondiga ajratilgan mablag'lar hisobiga olingan kitoblar bilan to'ldirilgan. Bu yilga kelib fondidagi kitoblar soni jami 568510 tani tashkil etgan.

Farg'ona viloyatida jami 593 ta kutubxona bo'lib, ulardan

- 1 3 tasi viloyat kutubxonalari
- 2 20 tasi markaziy kutubxonalar
- 3 45 tasi bolalar filial kutubxonalari
- 4 525 tasi tarmoq kutubxonalar bo'lgan

Viloyatdagi jami kutubxonalarning 458 tasi qishloq joylarda joylashgan. Viloyatdagi barcha kutubxonalar fondisi doimiy yangi turdagi adabiyotlar bilan to'ldirib borilgan. Jumladan, madaniyat ishlari vazirligi tasarrufidagi kutubxonalar bo'yicha kitob fondisi 2003-yil 1-yanvarga 6015596 nusxani tashkil etadi. Bundan 3445223 tasi o'zbek tilidagi adabiyotlar tashkil etgan. Yil davomida kutubxonalarga 26331 nusxa kitob sotib olindi, ulardan 16887 tasi o'zbek tilidagi kitoblar bo'lgan. 1990-yillarda xo'jalik hisobi evaziga kutubxonaning moddiy-texnik negizini mustahkamlash maqsadida pulli ish usullari amaliyotga kintildi, bular - tungi abonement, fondan chiqarilgan adabiyotlarning sotuvi, til bo'yicha o'quv kurslari, kutubxonachilik kurslari va boshqalar. 1991-yildan so'ng, ya'ni mustaqillikka erishganimizdan keyin o'lkashunoslik ishlariga, viloyat tarixini, til va madaniy merosini o'rganishga ehtibor kuchaytirildi. 1999-yildan loyihalar bilan ishlash takomillashdi. AKM shu vaqt ichida 10 dan ortiq loyihalar doirasida ish olib bordi. Bu kutubxona uchun juda katta moddiy va mahnaviy yordam keltirdi. 2005-yildan kutubxonaning elektron katalogi tuzila boshlandi va dastlab nodir adabiyotlar fondi olindi. 2006-yilgi 381-sonli Qaror asosida ilmiy-universal kutubxona axborot-kutubxona markazi sifatida qaytadan tashkil topadi. Yangi axborot texnologiyalari, elektron o'quv zali, yoshlar bilan mahnaviy va mahrifiy ishlar bo'limi tashkil topdi. 53 nuqtadan iborat ichki tarmoq ishga tushdi, avtomatlashtirilgan ishchi o'rinlari o'rnatildi.

1999-yildan loyihalar bilan ishlash takomillashdi. AKM shu vaqt ichida 10 dan ortiq loyihalar doirasida ish olib bordi. Bu kutubxona uchun juda katta moddiy va maonaviy yordam keltirdi. 2005 yildan kutubxonaning elektron katalogi tuzila boshlandi va dastlab nodir adabiyotlar fondi olindi. 2006-yilgi 381-sonli qaror asosida ilmiy-universal kutubxona axborot-kutubxona markazi sifatida qaytadan tashkil topadi. Yangi axborot texnologiyalari, elektron o'quv zali, yoshlar bilan maonaviy va maorifiy ishlar bo'limi tashkil topdi. 53 nuqtadan iborat ichki tarmoq ishga tushdi, avtomatlashtirilgan ishchi o'rinlari o'rnatildi. O'lkashunoslik kartotekasi tashkil topib, hozirgi kunda unda o'lka haqida 150000 kartochkalar to'plangan. Bugungi kunda kitob fondi 290 ming nusxadan ortiq bo'lib, shulardan 2372 tasi noyob kitoblardir.

Noyob o'lkashunoslik fondi Farg'ona viloyatiga oid 2000 mingdan ortiq o'zbek va rus tillaridagi adabiyotlar va boshqa materiallarni o'z ichiga oladi. Sektorning ma'lumotnoma-bibliografik apparatida o'lkashunoslikka oid hujjatlar to'liq aks ettirilgan. Bugungi kunda O'lkashunoslikka oid ma'lumotlar bazasi tashkil etilgan va muntazam to'ldirib borilmoqda. Sektor fondi Farg'ona viloyatining siyosiy, ijtimoiy va madaniy hayoti, tarixi, iqtisodi, sanoati va qishloq xo'jaligiga oid adabiyotlar va matbuot nashrlaridan tashkil topgan. Kitobxonlarni Farg'ona viloyatimiz tarixi yetishib chiqqan mashhur kishilari bilan tanishtirish maqsadida ko'plab tadbirlar tashkil etiladi. AKMda 2009-yilda kutubxona an'alarini saqlash va rivojlantirish, kutubxona tarixini o'rganish va targ'ib qilish maqsadida, o'lkashunoslik sektori qoshida kutubxona muzeyi tashkil qilingan. Muzey eksponatlari orasida o'tgan asrlardagi milliy hayotning noyob ashyolari – dehqonchilik buyumlari, milliy liboslar, uy-ro'zg'or buyumlari hamda kutubxona ishining o'ziga xos xususiyatlarini ochib beruvchi texnika vositalari – yozuv mashinasi, patefon, kutubxona xodimlari turli yillarda foydalangan ofis materiallari yog'och hisob va siyohdonlar mavjud. Shuningdek, muzeyda kutubxona tarixidagi voqealarni keng ochib berish maqsadida, bannerlar, kutubxona faoliyatida yuqori ko'rsatkichlar ko'rsatgan faxriy xodimlar fotosuratlarini, albomlar, minnatdorchilik xatlari o'rin egallagan. So'nggi yillarda axborot-kutubxona markazlarining o'lkashunoslik faoliyati kengayib bormoqda. Ular nafaqat o'lkashunoslik fondlarini saqlash va bibliografik ma'lumotlarning integratori, balki tarixiy bilimlar va g'oyalarning mustaqil ishlab chiqaruvchisi sifatida ham harakat qilishadi. Kutubxonalar mintaqaviy tarix, kutubxonashunoslik va kitob nashriyoti sohasida katta ilmiy-tadqiqot ishlarini olib bormoqdalar. O'lkashunoslik sektori tomonidan Farg'onalik shoir va yozuvchilarining tavsiya ro'yxatlari, bibliografik sharhlar, bukletlar tayyorlanib viloyatdagi axborot-kutubxona markazlariga tarqatilib kelinmoqda. Shuningdek, muzeylar va arxivlar bilan birgalikda Axborot-kutubxona markazi tomonidan O'lka tarixi, tarixiy qadamjolar, me'moriy obidalar, taniqli shaxslarga bag'ishlangan multimedia resurslarini tayyorlandi. 1.O'zbekistonning Birinchi Prezidenti Islom Karimov

2. Buyuk soʻz ustasi (A.Qahhor).
3. Bolalar nasrining dargʻasi (X.Toʻxtaboev).
4. Oltin vodiy gavhari (Fargʻonaga bagʻishlangan).
5. Sanʼatimizning yorqin yulduzi (Tamaraxonim).
6. Goʻzal navolar sohibasi (Zebuniso).
7. “Komillikni koʻzlagan shoira” (Uvaysiy).

Ushbu multimedia resurslari hamkor tashkilotlarga taqdim etilmoqda hamda bu aholining, ayniqsa, yoshlar oʻlkamiz tarixi bilan tanishtirish va ular eʼtiborini jalb qilishda samarali natija bermoqda.

Oʻlkaning mashhur, tarixiy shaxslar ijodiga bagʻishlangan toʻliq matnli “Gipperssika”li maʼlumotlar bazalari yaratib borilmoqda.

1. Abdulla Qaxxor.
2. Xudoyberdi Toʻxtaboev.
3. Zebunniso.
4. Tamaraxonim .
5. Mukarram Turgʻunboeva.
6. Anvar Obidjon.
7. Nodira.
8. Uvaysiy.
9. Burhoniddin Margʻinoniy.

Bugungi kunda zamonaviy texnologiyalarning joriy qilinishi bilan oʻlkashunoslik resurslarining mazmunida ham bir qancha oʻzgarishlar roʻy bermoqda. Masalan, oʻlkashunoslik maʼlumotlar bazasida bir vaqtning oʻzida bibliografik, toʻliq matnli va faktografik axborot mavjud boʻladi. Bir resurs turlicha maqsadlar: ilmiy tadqiqotga yordam berish, maʼnaviy, ahloqiy va vatanparvarlik tarbiyasi maqsadlariga xizmat qilish, bir vaqtning oʻzida ham olim, ham boshqa foydalanuvchini qiziqitira olish kabi ishlarda foydalanishi mumkin. Hozirgi globallashuv jarayonida, aholini, ayniqsa yoshlar hamda yurtimiz mehmonlarini oʻlkamiz bilan tanishtirish, Turizm sohasida kutubxonalarining oʻlkashunoslik faoliyatini rivojlantirish maqsadida keng koʻlamli ishlar olib borilyapti. Buning yorqin ifodasi sifatida joriy etilgan virtual kutubxonadan foydalanuvchilar oʻz smartfoni orqali kitoblarning elektron nusxasini QR-kod orqali bepul yuklab olishi mumkin. Buning uchun QR-skaner shtrix kod deb nomlangan dastur yuklab olinadi. Ayni vaqtda AKM tomonidan oʻlkaga oid 200 dan ortiq QR-kodli adabiyotlar tayyorlanib, Fargʻona xalqaro aeroporti binosida, Temiryoʻl vokzalida, avtoshohbekatlarda va AKM foyesi va oʻquv zallariga joylashtirilgan. Kelgusida muzey, mehmonxonalar ham joylashtirish rejalashtirilgan. Kitobxonlikni targʻib qilish nafaqat anʼanaviy shaklda, balki axborot texnologiyalarini jalb qilgan holda ham olib borilmoqda. Kutubxonalar virtual olamda ham yoshlarni kitobxonlikka jalb qilish, kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish, kutubxona faoliyatini takomillashtirish, ayniqsa, yoshlarning kitob oʻqishga boʻlgan qiziqishlarini hamda intellektual bilimlarini oshirish, madaniy ehtiyojlarini har tomonlama taʼminlash maqsadida, ijtimoiy tarmoqlar – www.facebook.com, www.instagram.com, www.telegram.com, www.youtube.com, www.twitter.com sahifalarida viloyat AKMning sahifalari yaratildi va doimiy kitob targʻiboti olib borilmoqda. Kutubxonada mavjud boʻlgan oʻlkamizga oid adabiyotni targʻib qilish uchun kutubxona saytining imkoniyatlaridan foydalanilmoqda. Mahalliy tarixning multimedia nashrlarini yaratish, virtual prezentatsiyalar va zamonaviy Fargʻona va uning tarixi, shaharning taniqli odamlari toʻgʻrisida viktorinalar tashkil etish, turli innovatsion texnologiyalar yordamida har qanday materialni jonlantirishga yordam beradi, taklif qilingan maʼlumotlarni qabul qilish va oʻzlashtirishni soddalashtiradi. Shuningdek, “Erkin kamera” loyihasi bilan Fargʻonaning eʼtiborga molik joylari toʻgʻrisida AKMning ijtimoiy tarmoqlardagi sahifasida maʼlumotlar berib borilmoqda va kitobxonlar bilan savol-javoblar oʻtkazilmoqda.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, keyingi yillarda Fargʻona viloyat kutubxonasi tarixiy va madaniy merosni saqlash va oʻlkashunoslik faoliyati rivojlantirish boʻyicha barcha anʼanaviy-zamonaviy imkoniyatlardan samarali foydalangan holda, bir qator amaliy ishlarni yoʻlga qoʻyib kelmoqda. Yuqoridagilardan kelib chiqib tadqiqot ishi boʻyicha quydagi takliflar ishlab chiqildi.

Fargʻona viloyati sovetlar davrida markaz shaharlardan biri boʻlganligi tufayli viloyat kutubxonasi fondi manbalarga boy hisoblanib, uni tor doirada tarixiy nuqtai nazaridan oʻrganish va

tahlil etilish viloyat kutubxonasining tarixini ochib berish ilm-fan sohasi uchun muhim ahamiyat kasb etgan bo'lar edi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mirziyoyev Sh.M. Adabiyot va san'at, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma'naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir. Prezident Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvdagi ma'ruzasi // Ma'rifat, 2017, 5-avgust.
2. Axborot-kutubxona va axborot-resurs markazlari ishini tashkil qilish (hujjatlar to'plami). T., A. Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2007.
3. Бердиева З.Кутубхонашунослик. – Т.: Илм зиё, 2003. –Б.57.
4. Farg'ona viloyati joriy arxividan
5. Бердиева З.Кутубхонашунослик. – Т.: Илм зиё, 2003. –Б.57.
6. Қосимов О. Есимов Т. Умумий кутубхонашунослик – Т.: Ўқитувчи, 1994. – Б.59
7. Бердиева З.Кутубхонашунослик. – Т.: Илм зиё, 2003. –Б.57.
8. Шерматова Ҳ. Фарғона вилоят кутубхонаси тарихий ва маданий меросни сақлаш бўйича ўлкашунослик фаолияти. Фан, та'лим, маданият ва бизнесда интернет ва ахборот-кутубхона ресурслари. XV Халқаро конференция. Мақолалар тўплами . Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти. Тошкент – 2022. –Б.337.